



UDK: 159.9:316.356.2

Feruz MAMIROVA

O'qituvchi, Sarbon universiteti Toshkent, O'zbekiston

E-mail: [sulaymonovnaferuza@gmail.com](mailto:sulaymonovnaferuza@gmail.com). Orcid. 0009-0009-8256-8225

Dotsent D.Abdullayeva taqrizi asosida

## BEFARZAND OILALARDA SHAXSLARARO MUNOSABATLARNING GENDER XUSUSIYATLARI

Annotatsiya

Mazkur maqolada befarzand oilalarda shaxslararo munosabatlarning gender xususiyatlari psixologik nuqtai nazardan tahlil qilindi. Tadqiqotda 36 ta befarzand oiladan 72 nafar respondent ishtirok etdi. T. Lirining "Shaxslararo munosabatlarni tashxis qilish" metodikasi yordamida olingan natijalar erkaklarda avtoritarlik, xudbinlik va agressivlik ko'rsatkichlari yuqori, ayollarda esa bo'ysinuvchanlik va boshqalarga bog'liqlik darajalari yuqoriligini ko'rsatdi. Natijalar befarzandlik holatida shaxslararo munosabatlar gender rollari va ijtimoiy stereotiplar ta'sirida shakllanishini tasdiqladi. Tadqiqot xulosalari befarzand oilalar bilan ishlashda gender yondashuviga asoslangan psixologik maslahat va oilaviy terapiya usullarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** befarzandlik, befarzand oila, shaxslararo munosabatlar, gender xususiyatlari, oilaviy munosabatlar, avtoritarlik, bo'ysinuvchanlik, psixologik stress, oilaviy terapiya, psixologik maslahat.

## GENDER CHARACTERISTICS OF INTERPERSONAL RELATIONSHIPS IN CHILD

Annotation

This article examines the gender characteristics of interpersonal relationships in childless families from a psychological perspective. The study involved 72 respondents from 36 childless couples. The results obtained using T. Leary's Interpersonal Diagnosis of Personality method showed that men demonstrated higher levels of authoritarianism, selfishness, and aggressiveness, while women exhibited higher levels of submissiveness and dependence on others. The findings confirm that interpersonal relationships in childless families are shaped by gender roles and social stereotypes. The study highlights the importance of applying gender-sensitive psychological counseling and family therapy approaches when working with childless couples to strengthen marital relationships and improve psychological well-being.

**Key words:** childlessness, childless family, interpersonal relationships, gender characteristics, family relationships, authoritarianism, submissiveness, psychological stress, family therapy, psychological counseling.

## ГЕНДЕРНЫЕ ОСОБЕННОСТИ МЕЖЛИЧНОСТНЫХ ОТНОШЕНИЙ В БЕЗДЕТНЫХ СЕМЬЯХ

Аннотация

В данной статье рассматриваются гендерные особенности межличностных отношений в бездетных семьях с психологической точки зрения. В исследовании приняли участие 72 респондента из 36 бездетных супружеских пар. С помощью методики Т. Лири «Диагностика межличностных отношений» установлено, что у мужчин более выражены авторитарность, эгоцентризм и агрессивность, тогда как у женщин преобладают уступчивость и зависимость от окружающих. Полученные результаты подтверждают, что межличностные отношения в бездетных семьях формируются под влиянием гендерных ролей и социальных стереотипов. Сделан вывод о необходимости использования гендерно ориентированного психологического консультирования и семейной терапии для укрепления супружеских отношений и повышения психологического благополучия супругов.

**Ключевые слова:** бездетность, бездетная семья, межличностные отношения, гендерные особенности, семейные отношения, авторитарность, подчиняемость, психологический стресс, семейная терапия, психологическое консультирование.

**Kirish:** Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy instituti bo'lib, unda shaxsning psixologik rivojlanishi, ijtimoiylashuvi va emotsional farovonligi shakllanadi. O'zbek jamiyatida farzandli bo'lish oilaning muhim maqsadlaridan biri sifatida qaraladi. Shu sababli befarzandlik nafaqat tibbiy, balki psixologik va ijtimoiy muammo sifatida namoyon bo'ladi.

Farzandsizlik holati er-xotin o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, hissiy yaqinlik, o'zaro ishonch va ijtimoiy rol kutishlariga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, gender omili ushbu jarayonda muhim ahamiyatga ega, chunki erkak va ayol farzandsizlikni turlicha qabul qiladi va unga turli usullar bilan moslashadi.

Oila psixologiyasi sohasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar farzandsizlik holati er-xotin o'rtasidagi munosabatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi. Xususan, befarzandlik oilaviy qoniqish darajasining pasayishi,

emotsional barqarorlikning izdan chiqishi hamda nikoh mustahkamligining zaiflashuvi bilan bog'liq bo'lishi mumkin[2]. Farzand ko'rish bilan bog'liq kutishlarning amalga oshmasligi er-xotinlarda psixologik zo'riqish, ijtimoiy bosim va kelajakka nisbatan noaniqlik hissini kuchaytiradi.

Oilaviy tizimlar nazariyasining asoschisi M.Bowen oilani o'zaro bog'langan emotsional tizim sifatida talqin qiladi. Uning fikricha, oiladagi har qanday muammo, jumladan farzandsizlik, butun oilaviy tizimning muvozanatiga ta'sir ko'rsatadi[3]. Farzandsizlik tufayli yuzaga keladigan stress er-xotin o'rtasidagi hissiy masofa, nizolar sonining ortishi yoki aksincha, o'zaro qaramlilikning kuchayishiga olib kelishi mumkin.

V.Satir oila ichidagi muloqot sifati va emotsional qo'llab-quvvatlashning oilaviy farovonlikdagi o'rniga alohida e'tibor qaratgan. Unga ko'ra, er-xotinlarning o'z his-

tuvg'ularini ochiq ifoda eta olishi, bir-birini tushunishi va qo'llab-quvvatlashi farzandsizlik bilan bog'liq psixologik qiyinchiliklarni yengishda muhim omil hisoblanadi[4]. Muloqotning samimiy va konstruktiv bo'lishi oiladagi keskinlikni kamaytirib, o'zaro ishonchni mustahkamlaydi.

S.Minuchin tomonidan ishlab chiqilgan strukturaviy oilaviy terapiya konsepsiyasida oiladagi rollar va chegaralar tizimining ahamiyati ta'kidlanadi. Farzandsizlik sharoitida oilaviy strukturaning o'zgarishi er-xotin rollarining qayta taqsimlanishiga, mas'uliyat va kutishlarning o'zgarishiga sabab bo'lishi mumkin[5]. Bu holat ba'zi oilalarda yaqinlik va hamjihatlikni kuchaytirsa, ayrim hollarda esa nizolar va tushunmovchiliklarni keltirib chiqaradi.

Zamonaviy tadqiqotlar ham befarzandlikning psixologik oqibatlarini keng yoritadi. A.Greil, L.Schmidt, T.Cousineau va A.Domarlarning izlanishlari natijalariga ko'ra, farzandsizlik ko'pincha depressiv holatlar, xavotirning ortishi, o'zini past baholash va ijtimoiy izolyatsiya bilan kechadi[2]. Ayniqsa, ayollarda aybdorlik hissi va ijtimoiy bosim kuchliroq namoyon bo'lsa, erkaklarda hissiy kechinmalarni yashirish va muammoni inkor etishga moyillik kuzatiladi. Ushbu gender farqlari befarzand oilalarda shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlarini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi.

Oila psixologiyasi va reproduktiv salomatlik masalalari o'zbek olimlari tomonidan ham keng o'rganilgan. V.M. Karimova oiladagi psixologik iqlim, muloqot va o'zaro munosabatlar oilaviy barqarorlikning muhim omili ekanligini ta'kidlaydi[1,7]. Uning fikricha, farzandsizlik holatida o'zaro qo'llab-quvvatlash va konstruktiv muloqot oilani mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

G'.B.Shumarov oilaviy totuvlikda emotsional yaqinlik va rollarning mosligi muhimligini qayd etib, uzoq davom etuvchi stress, jumladan farzandsizlik, nizolar va psixologik zo'riqishni kuchaytirishini ko'rsatadi[6]. E.G'. G'oziyev esa frustratsiya va xavotir shaxslararo munosabatlarga salbiy ta'sir qilishini ta'kidlaydi. Farzand ko'rish ehtiyojining qondirilmasligi befarzand oilalarda keskinlik va tushunmovchiliklarni yuzaga keltiradi[6]. B.R. Qodirov va boshqa tadqiqotchilar gender rollari hamda ijtimoiy stereotiplarning er-xotin munosabatlariga ta'sirini yoritganlar. O'zbek jamiyatida farzandsizlik ayollarda aybdorlik va ijtimoiy bosimni, erkaklarda esa hissiyotlarni yashirishga moyillikni kuchaytiradi[1,6].

Asosiy qisim: Befarzandlik er-xotinlarning psixologik holati va o'zaro munosabatlariga bevosita ta'sir qiluvchi muhim oilaviy muammo hisoblanadi. O'zbek jamiyatida farzand

oilaviy baxt va avlod davomiyligining asosiy mezonini sifatida qaralgani sababli, farzandsizlik ko'pincha ijtimoiy bosim va stereotiplar bilan kechadi. Bu holat oilada emotsional keskinlik, tushunmovchilik va nizolarni yuzaga keltirishi mumkin.

Ayollar farzandsizlikni ko'proq emotsional qabul qilib, aybdorlik, xavotir va tushkunlikni boshdan kechiradilar. Erkaklar esa hissiyotlarini yashirishga moyil bo'lib, muammoni ochiq muhokama qilishdan qochadilar. Gender stereotiplari er-xotinlarning muammoni turlicha qabul qilishiga va o'zaro tushunmovchiliklarning kuchayishiga olib keladi.

Befarzand oilalarda ishonch, empatiya va o'zaro qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyatga ega. Shu bois psixologik maslahat va oilaviy terapiyada gender xususiyatlarini hisobga olish oilaviy munosabatlarni mustahkamlash hamda nikohdan qoniqish darajasini oshirishga yordam beradi.

O'rganish metodlari: Tadqiqotda jami 36 ta befarzand oila ishtirok etdi. Respondentlar tarkibi 72 nafar shaxsdan iborat bo'lib, ulardan 36 nafari erkak va 36 nafari ayolni tashkil.

Shaxslararo rollar va pozitsiyalar diagnostikasi uchun T.Lirining "Shaxslararo munosabatlarni tashxis qilish" metodikasi qo'llanildi. Ushbu metodika shaxsning muloqot jarayonidagi xulq-atvori va boshqalarga nisbatan tutgan pozitsiyasini o'rganishga yo'naltirilgan.

Metodika 128 ta savoldan iborat bo'lib, ular 8 ta yo'nalish asosida shaxsning muloqotdagi dominantlik, agressivlik, bo'ysunuvchanlik va hamkorlik darajalarini aniqlaydi. Ushbu test yordamida befarzandlik ta'sirida er yoki xotinning aybdorlik yoki hukmronlik pozitsiyalaridan qay birini egallaganini va bu holat shaxslararo nizolarga qanday ta'sir qilayotganini tahlil qilish imkoni tug'iladi.

**Natijalar:** Tadqiqotimiz davomida T.Lirining "Shaxslararo munosabatlarni tashxis qilish" metodikasini Mann-Uitni U mezonini asosida sinaluvchilarimizning jins bo'yicha tahlili olib borildi.

Tadqiqotimizning natijalariga ko'ra T. Lirining "Shaxslararo munosabatlarni tashxis qilish" metodikasining "Avtoritarlik" ( $U=-3,369$ ;  $p<0,01$ ), "Xudbinlik" ( $U=-3,844$ ;  $p<0,01$ ), "Agressivlik" ( $U=-2,986$ ;  $p<0,01$ ), "Bo'ysinuvchanlik" ( $U=-6,547$ ;  $p<0,01$ ), "Boshqalarga bog'liqlik" ( $U=-3,952$ ;  $p<0,01$ ) shkalasi natijalarida ishonchli tafovutlar aniqlandi.

Shubhalanuvchanlik, Do'stonalik va Altruistiklik shkalalari bo'yicha jinslar o'rtasida statistik ahamiyatli farqlar aniqlanmadi. Bu esa befarzandlik vaziyatida ikkala jins vakillari ham bir xil darajada xavotir va munosabatlardagi noaniqlikni his qilishlarini anglatadi.

### 2.3.1- jadval.

T. Lirining "Shaxslararo munosabatlarni tashxis qilish" metodikasi yuzasidan sinaluvchilarning jins bo'yicha natijalar tahlili (Mann-Uitni U mezonini asosida  $N=72$ ).

Ko'rsatgichlar	O'rtacha rang		U	p
	Erkak (N=36)	Ayol (N=36)		
Avtoritarlik	44,61	28,39	-3,369	,001**
Xudbinlik	45,82	27,18	-3,844	,000**
Agressivlik	43,75	29,25	-2,986	,003**
Shubhalanuvchanlik	32,61	38,39	-2,512	,112
Bo'ysinuvchanlik	20,61	52,39	-6,547	,000**
Boshqalarga bog'liqlik	26,97	46,03	-3,952	,000**
Do'stonalik	33,88	39,13	-1,079	,281
Alturistiklik	35,47	37,53	-,421	,673

$p<0,05^*-0,011$

$p<0,01^{**}-0,000$

"Avtoritarlik" shkalasi bo'yicha Erkaklar 44,61 va Ayollar 28,39 natijalarni ko'rsatdi. Bu natijalar ilmiy jihatdan shuni ko'rsatadiki, befarzand oilalarda erkaklar odatda shaxslararo munosabatlarda boshqaruvchi, rahbarlik va nazorat

qilish tendensiyalariga ko'proq moyil bo'lishadi. Ushbu holat psixologik jihatdan erkaklarning o'zini himoya qilish mexanizmi, shuningdek, reproduktiv muvaffaqiyatsizlik natijasida yuzaga kelgan noaniqlik va stressga javob reaksiyasi

bilan bog'liq. Boshqa tomondan, ayollarda avtoritarlik darajasining pastligi, aksincha, ular o'zaro muloqotda ko'proq moslashuvchanlik, bo'ysunuvchanlik va hamkorlikka intilishini ko'rsatadi. Shu tarzda, avtoritarlik ko'rsatkichidagi gender farqi befarzandlik kontekstida er-xotin o'rtasidagi kuch va boshqaruv pozitsiyalarining turlicha shakllanishini ilmiy asos bilan izohlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, erkaklarda avtoritarlik ko'rsatkichining ayollarga nisbatan yuqoriligi befarzandlik stressi ta'sirida yuzaga keladigan psixologik kompensatsiya mexanizmi bilan izohlanadi. Erkaklar ichki xavotir va zaiflik hissini yashirish maqsadida oilaviy munosabatlarda boshqaruvchi va qat'iy rolni egallashga moyil bo'ladi. An'anaviy qarashlarga ko'ra farzand erkakning ijtimoiy mavqei va kuchining belgisi hisoblanganligi sababli, befarzandlik holatida ular avtoritar xatti-harakatlar orqali o'z mavqeini tiklashga intiladilar.

"Xudbinlik" shkalasi bo'yicha erkaklar (45,82) ayollarga (27,18) nisbatan yuqori natija ko'rsatdi. Bu erkaklarning stress va frustratsiya ta'sirida o'z manfaatlarini ustun qo'yishga hamda emotsional himoya sifatida masofa saqlashga moyilligini anglatadi. Ayollarda esa pastroq xudbinlik darajasi ularning hamkorlikka, muloqot va kompromissga ko'proq tayyor ekanligini ko'rsatadi.

"Agressivlik" shkalasi natijalari ham erkaklarda (43,75) ayollarga (29,25) nisbatan yuqori ekanligini ko'rsatdi. Bu holat erkaklarning ichki stress va norozilikni agressiv xatti-harakatlar orqali tashqariga chiqarishga moyilligini bildiradi. Ayollarda esa agressivlikning pastroq darajasi munosabatlarda moslashuvchanlik va hamkorlikning kuchliroq ekanligi bilan izohlanadi.

"Bo'ysunuvchanlik" shkalasi bo'yicha ayollar (52,39) erkaklarga (20,61) nisbatan yuqori natija ko'rsatdi. Bu ayollarning oilaviy munosabatlarni saqlab qolish, moslashish va hamkorlikni qo'llab-quvvatlashga intilishi bilan izohlanadi. Erkaklarda esa mustaqillik va qaror qabul qilishga bo'lgan ehtiyoj kuchliroq namoyon bo'ladi. Umuman, tadqiqot natijalari befarzand oilalarda gender rollari va emotsional moslashuv strategiyalarining shaxslararo munosabatlarga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

T.Liri talqinida bo'ysunuvchanlik - bu o'ziga nisbatan ishonchning pastligi va tanqidni og'riqli qabul qilishdir. Befarzandlik vaziyatida ayol kishi atrofdagilarning qarindoshlar, qo'shnilar bosimiga uchraydi. Bu bosim natijasida unda "men hech kim emasman", "men o'z vazifamni bajara olmayapman" degan fikrlar shakllanib, ijtimoiy va

oilaviy munosabatlarda mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati pasayadi. Erkaklarda bu ko'rsatkichning juda pastligi, ularning befarzandlik vaziyatida ham o'z liderlik maqomini saqlab qolishga yoki yuqorida tahlil qilinganidek, avtoritar-agressiv pozitsiya orqali himoyalaniishga intilishini ko'rsatadi. Bu esa oilada "Kuchli dominant erkak - Itoatkor ayol" modelini yuzaga keltiradi.

Boshqalarga bog'liqlik shkalasi bo'yicha Erkaklar 20,61 va Ayollar 52,39 natijalarni ko'rsatdi. Ushbu natija shuni ko'rsatadiki, befarzand oilalarda ayollar ko'pincha o'zini boshqa shaxslar - er, qarindoshlar yoki do'stlar - bilan bog'lash orqali emotsional qo'llab-quvvatlash va ijtimoiy muvozanatni saqlashga intiladi. Erkaklarning past bog'liqlik darajasi esa ularning mustaqil qaror qabul qilish va o'z-o'zini boshqarish ehtiyojining yuqoriligi bilan izohlanadi, bu esa ayrim hollarda oiladagi shaxslararo muloqotning cheklanishiga yoki izolyatsiyaga olib kelishi mumkin. Shu tarzda, "Boshqalarga bog'liqlik" shkalasidagi gender farqi befarzand oilalardagi shaxslararo munosabatlarning strukturasi va rollarning turlicha namoyon bo'lishini ilmiy asos bilan tushuntiradi.

**Xulosa:** Mazkur tadqiqot natijalari befarzandlik holati er-xotinlarning psixologik holati va shaxslararo munosabatlariga sezilarli ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Tadqiqotda 36 ta befarzand oiladan 72 nafar respondent ishtirok etdi va T.Lirining metodikasi asosida olingan natijalar Mann-Uitni U mezonni yordamida tahlil qilindi.

Natijalarga ko'ra, erkaklarda avtoritarlik, xudbinlik va agressivlik ko'rsatkichlari yuqori bo'lib, bu befarzandlik bilan bog'liq stress va frustratsiyaning nazorat qilishga intilish hamda hissiy zo'riqishni tashqi xatti-harakatlar orqali ifodalashda namoyon bo'lishini ko'rsatdi. Ayollarda esa bo'ysunuvchanlik va boshqalarga bog'liqlik darajalari yuqori bo'lib, bu ularning oilani saqlash va emotsional qo'llab-quvvatlashga bo'lgan ehtiyoji bilan izohlanadi.

Shubhalanuvchanlik, do'stonalik va altruistiklik ko'rsatkichlari bo'yicha sezilarli farq aniqlanmadi. Bu esa farzandsizlik holatida erkak va ayollarda psixologik noqulaylik umumiy bo'lsa-da, uning namoyon bo'lish shakli gender xususiyatlariga bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalari befarzand oilalarda shaxslararo munosabatlar gender rollari va ijtimoiy stereotiplar ta'sirida shakllanishini tasdiqladi. Shu bois, psixologik maslahat va oilaviy terapiyada gender xususiyatlarini hisobga olish, konstruktiv muloqotni rivojlantirish va o'zaro qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

#### ADABIYOTLAR

1. Karimova V.M. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2008. – 184 b.
2. Greil A.L. Infertility and psychological distress: A critical review of the literature // Social Science & Medicine. – 1997. – Vol. 45(11). – P. 1679–1704.
3. Bowen M. Family Therapy in Clinical Practice. – New York: Jason Aronson, 1978. – 578 p
4. Satir V. Conjoint Family Therapy. – Palo Alto: Science and Behavior Books, 1983. – 421 p.
5. Minuchin S. Families and Family Therapy. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1974. – 268 p.
6. Shoumarov G'.B. Oila psixologiyasi. – Toshkent: Sharq, 2000. – 256 b.
7. Sulaymonovna, M. F. (2023). Study and significance of youth dependence on social networks. Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali, 1(17), 205-212.